

Ma'naviy-
ma'rifiy,
ilmiy-
metodik
nashr

№7/2025

Boshlang'ich ta'lim

Elementary education

Начальное образование



KICHIK YURAKLARGA KATTA DUNYONI OCHGAN USTOZ

Muqovaning 2- betiga qarang.

Ta'limda
sun'iy
intellekt


4

Современные
проблемы каллиграфии
у младших школьников
и пути их решения

16

Ota-onalar majlisini
jonlantiruvchi
tarbiyaviy treninglar:
metod va samara

28



Boshlang'ich ta'limda ilg'or metodlar muallifi Otabek Hakimov — zamonaviy boshlang'ich ta'lim sohasida samarali va natijaviy metodikalarni yaratib kelayotgan ilg'or pedagoglardan biri.



KICHIK YURAKLARGA KATTA DUNYONI OCHGAN USTOZ



Otabek Hakimov tomonidan ishlab chiqilgan kalligrafiya (husnixat), savod chiqarish, tez o'qish, mental arifmetika yo'nalishidagi metodlar nafaqat respublika miqyosida, balki xalqaro darajada ham o'z samaradorligini ko'rsatmoqda. U xalqaro mental arifmetika musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Shuningdek, bolalar uchun karra jadvalini yodlash, matnli masalalarni yengil yechish bo'yicha ham innovatsion yechimlar taklif qilgan. Bugungi kunda Otabek Hakimov butun respublika bo'ylab ko'plab ustozlarga boshlang'ich ta'lim sohasida amaliy va metodik yordam berib kelmoqda. Uning maqsadi — har bir bola va pedagog uchun zamonaviy, sodda va natijaviy o'quv jarayonini ta'minlashdir.



Andijon viloyati, Shahrixon tumanidan bo'lgan Otabek Hakimov 1995- yili umumiy o'rta ta'lim maktabini tamomlab, 2001- yili Andijon davlat universitetining tarix fakultetini muvaffaqiyatli tugatdi. Shu yildan boshlab o'qituvchilik faoliyatini boshladi.

2001–2017- yillar davomida Shahrixon tumanidagi 54- maktabda tarix fanidan dars berib, yoshlar qalbidagi Vatanga muhabbat va tarixiy xotirani shakllantirishga ulkan hissa qo'shdi.

Zamon talablarini hisobga olgan holda, 2017–2018- yillarda boshlang'ich sinflarda dars berishda innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirib, bilim va tajribasini yanada boyitdi. 2018- yildan boshlab boshlang'ich ta'lim yo'nalishiga alohida e'tibor qaratib, pedagoglar va o'quvchilar uchun qulay, samarali o'qitish metodlarini yaratishga kirishdi.

Boshlang'ich ta'lim va tarbiya yo'nalishidagi ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-metodik nashr

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Islom ZOKIROV
Tal'at G'AFFOROVA
Dilfuza TOSHMUHAMEDOVA
Nafisa SAFAROVA
Halim SAIDOV

Bosh muharrir:
Gulmira KAMILOVA

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligida № 0056- raqam bilan 2017- yil 5- aprelda qayta ro'yxatga olingan.

100000, Toshkent sh., Matbuotchilar-32.
(+99897) 091-21-05, (+99890) 975-57-24,
(+99890) 325-87-51.
<https://t.me/BT1992>
www.bt-jurnal.uz
boshlangichtalim
talim-uz1992@inbox.ru

© belgisida tijoriy materiallar beriladi.

Jurnal maketi tahririyatning matbaa bo'limida tayyorlandi.

Dizayner: U. Jontemirova.

Nashr uchun mas'ul:
Sh. Vosiqova.

Bosishga 2025- yil 24.07. kuni ruxsat etildi. Ofset usulida chop etildi.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8.
Qog'oz hajmi shartli 4 bosma taboq.
Nashriyot hisobida 4,65 bosma taboq.
Tiraji: 4900. 60- buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Tahririyat nuqtayi nazariga mos kelmagan maqolalar tahlil etilmaydi va egalariga qaytarilmaydi.

«IMKON NEW PRINT»
MChJ bosmaxonasi.
Samarqand shahri, Ziyokorlar MFY,
Ziyokor ko'chasi, 1 «A» uy.

*Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.*
Alisher NAVOIY

MUNDARIJA

СОДЕРЖАНИЕ

Inklyuziv ta'lim
Boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'lim innovatsiyasi.....2



Ona tili


Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar imlosi (2- sinf).....6



Bir soatlik dars

Doira va konus (4-sinf IV chorak).....8

Ta'limda differensiya
Boshlang'ich sinflarda differensial yondashuv asosida individual ta'lim.....10



Разработка урока по обучению грамоте с применением ИКТ и элементами интегрирования «Звук [о]. Буква О о».....13



Актуально

Современные проблемы каллиграфии у младших школьников и пути их решения.....16



Сказка

Как здорово дружить!.....20

Tarbiya chorahalarida
Valontyorlik harakatini boshlang'ich sinflarda shakllantirish.....26



Ko'rgazmali qurol

Millat kelajagi milliyligimizda.....30

Ekologik madaniyat
Boshlang'ich ta'limda tabiatshunoslikni boshqa fanlar bilan qanday integratsiyalaymiz?.....32

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA

INKLYUZIV TA'LIM INNOVATSIYASI

«O'zbekiston — 2030» strategiyasida 2030- yilga qadar boshlang'ich ta'limni sifatli rivojlantirish va uning ko'rsatkichlarini xalqaro ta'lim dasturlari hamda xorijiy mamlakatlarning tajribalariga mos ravishda tarkib toptirishga erishish vazifasi qo'yilgan. Bu borada O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim jarayonida inklyuziv ta'lim innovatsiyasini tarkib toptirish va u asosda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan shaxslarning bilim va ko'nikmalarini egallashni yo'lga qo'yish muhim strategik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan ushbu metodik tavsiyada mamlakatimizda boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'lim innovatsiyasi mazmuni, uning asoslari, amalga oshirish mexanizmlari va kelgusida kutiladigan amaliy samaralari tahlil etilgan. Metodik tavsiyaning asosiy maqsadi O'zbekistonda boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'lim innovatsiyasini tarkib toptirish bo'yicha tushuncha va yo'nalish berishdan iborat.



INKLYUZIV TA'LIM: TENG IMKONIYATLAR, IJTIMOY BARQARORLIK, SHAXSIY RIVOJLANISH

Har qanday jamiyatda yosh avlodning har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib voyaga yetishiga, munosib fuqarolar sifatida ulg'ayib, davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga ulush qo'shishlariga umid bog'lanadi. Butun jahon bolalariga tegishli bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishi, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rnini topish huquqlariga egadirlar. Respublikamizda ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasida tomonidan 2007- yilda «O'zbekistonda Inklyuziv ta'lim» loyihasi amalga oshirildi. Loyiha hamkorlari:

- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi;
- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi;
- Navoiy shahridagi «Umr» imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish markazi;
- Samarqand shahridagi «Hayot» nomli nogironlarga yordam berish markazi;

- Jizzax shahridagi «Istiqbolli avlod» markazi;
- Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi «Umid» tashabbuslarga ko'mak berish va rivojlantirish markazi;
- Termiz shahridagi «Imkon» imkoniyati cheklangan bolalar va oilalarga ko'mak berish markazi;
- Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi «Ziyo» maxsus zaruratli bolalarga ijtimoiy ko'mak berish markazi;
- maqsadli hududlar hokimliklari;
- O'zbekistondagi Shvetsariya elchixonasi.

Ushbu loyiha doirasida Toshkent, Guliston, Qarshi, Samarqand, Termiz, Andijon, Qo'qon, Nukus, Buxoro, Urganch shaharlaridagi maktabgacha ta'lim muassasa, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda imkoniyati cheklangan bolalar aralash guruhlarida inklyuziv texnologiya asosida ta'lim-tarbiya olishmoqda. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotiga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim

loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

Inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat'i nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan mulohazalarida javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qiy olishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatga kirishishi, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug'diradi. Olib borilgan inklyuziv ta'lim tadqiqotlar asosida inklyuziv ta'lim texnologiyasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Inklyuziv ta'lim tizimida maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun mehribonlik bilan tizimli yondashadigan, individuallashtirilgan, sharoitga qarab o'zgaruvchan, maxsus o'quv dasturlari, materiallari, vositalari va metodlari yordamida ta'lim-tarbi-

yaning pedagogik-psixologik jihatlarini zamonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayondir».

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo o'qituvchi inklyuziv tafakkurga ega bo'lishi va ta'lim sifati mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi shart. O'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo'lga qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lish kerak. Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojida bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishining maxsus va alternativ dasturlari orqali o'rgatilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir-birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi

INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

O'zbekiston ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim bosqichi muhim o'ringa ega bo'lgan bo'lib, u bugungi kunda yangi jamiyatning ehtiyojlariga mos vazifalarni bajarmoqda. Shu sababli boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'lim innovatsiyasini ishlab chiqish va bu boradagi muammolarning yechimlarini topish ushbu metodik tavsi-

yaning asosiy yo'nalishini tashkil qiladi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil qilishning me'yoriy asoslarini yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78- moddasi, O'zbekiston Respublikasining «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida»gi Qonuni (2020- yil), «Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani (Nyu York, 2006, 13- dekabr) ratifikatsiya qilish haqidagi»gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020- yil 13- oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori tashkil qiladi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha 2021 – 2022- o'quv yilidan boshlab quyidagi innovatsion yondashuvlar amalga oshirilmoqda:

- umumiy o'rta ta'lim maktablari har bir boshlang'ich sinfida inklyuziv sinf tashkil qilish va uni vositasida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarga ta'lim berish;
- umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida tashkil qilinadigan inklyuziv sinfda o'quvchilar va inklyuziv ta'lim oluvchi o'quvchilarning birgalikdagi o'qishini tashkil qilish;
- umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida tashkil qilinayotgan inklyuziv sinfda saboq beradigan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarkibini ta'minlash.

Mazkur innovatsion inklyuziv ta'lim sinfi orqali quyidagilarga erishish nazarda tutilgan:

- mamlakatimizning chekkka hududlarida istiqomat qilayotgan alohida ta'limga ehtiyojmand o'quvchilarni inklyuziv ta'lim bilan qamrab olish;
- inklyuziv ta'lim oluvchilarning sog'lom o'quvchilari bilan birgalikda o'qish jarayonini tashkil qilish asosida ularni to'laqonli ijtimoiy moslashtirishga erishish;
- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning ta'lim huquqlarini sog'lom o'quvchilar bilan teng ravishda amalga oshirish;

e) kelgusida har bir umumiy o'rta ta'lim maktabida zamonaviy talablarga mos inklyuziv sinflarning bo'lishiga zamin hozirlash.

Bunday inklyuziv ta'lim innovatsiyasi bugungi kunda amaliyotga joriy etila boshlandi va u pedagogik tajriba-sinov ishlaridan o'tkazilmoqda. Misol uchun, Toshkent shahri Bektemir tumanining 209- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida boshlang'ich sinflarda inklyuziv sinflar tashkil qilinib, 2021–2022- o'quv yilidan boshlab tajriba-sinov ishlaridan o'tkazilmoqda. Ushbu tajriba-sinov ishlari quyidagi amaliy samaralarni bera boshlaganligini ta'kidlab o'tish lozim:

- sog'lom boshlang'ich sinf o'quvchilari alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarga yozish, chizish va o'qish ko'nikmalarini o'rganishda yordam berayotganligi kuzatildi;
- o'quvchilar imkoniyati cheklangan inklyuziv ta'lim oluvchilarga topshiriqlarni bajarishda, narsalar yasashda (masalan, qozog'larni qirgishda) va amaliy ishlanmalarni o'zlashtirishda hamkorlikda yordam berish ko'nikmasi tarkib topdi;
- inklyuziv ta'lim oluvchilar uchun sinflarni moslashtirish jarayoni amalga oshirila boshlandi.

Ayni paytda, mamlakatimizda inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha bir qator ijtimoiy va pedagogik muammolar mavjudligini alohida eslatib o'tish lozim. Bu muammolarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilayotgan inklyuziv ta'lim sinflari uchun maxsus sinf va jihozlarning yetishmasligi (masalan, 1- sinfdan keyin o'quvchilar maktabning yuqori qavatlarida ta'lim oladilar va bu qavatlarida inklyuziv ta'lim oluvchilarning harakatlanishi uchun yo'laklar mavjud emasligi keng ko'lamlı muammolardan birini tashkil qiladi).

2. Mamlakat miqyosida boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'limni amalga oshiruvchi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bo'lgan talab yuqori darajada saqlanib qolayotgani.

(Davomi 24–25- betlarda.)

Zamonaviy metodlar va sun'iy intellekt(SI) sohalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning qo'llanilishi turli xil sohalarda inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Sun'iy intellekt, kompyuter tizimlarining inson aqlini takrorlashga qodir bo'lgan qismi sifatida, ma'lumotlarni tahlil qilish, o'rganish va qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy metodlar, jumladan, cho'qqini zabt etish, chuqur o'rganish va tabiiy tilni qayta ishlash, sun'iy intellektning asosiy komponentlaridan biridir. Ushbu metodlar yordamida katta hajmdagi ma'lumotlar tahlil qilinadi, shuningdek, murakkab masalalarni hal qilish uchun yangi yechimlar ishlab chiqiladi.



TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT

Sun'iy intellektning qo'llanilishi tibbiyot, moliya, ta'lim, transport va boshqa ko'plab sohalarda sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Masalan, ta'limda sun'iy intellekt yordamida o'qishning individualizatsiyasi, ma'lumotlarni tahlil qilish o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash va individual o'quv materiallarini ishlab chiqish mumkin.

1. Individual yondashuv: SI tizimlari o'quvchilarning o'rganish uslublari, qobiliyatlari va o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash va ularga moslashtirilgan o'quv materiallarini taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Masalan, har bir o'quvchi o'z sur'atida va stilida o'rganishi mumkin, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

2. O'qituvchining yordamchisi: o'qituvchilar uchun SI ma'lumotlarni tahlil qilish, o'quvchilarning yutuqlari va muammolarini aniqlashda yordam beradi. SI tizimlari o'quvchilarning baholarini, darsdagi faoliyatini va o'zlashtirish darajasini kuzatib, ularga samarali dars rejalashtirishda qo'l keladi.

3. Intellektual tahlil va baholash: SI yordamida ta'lim tizimlarida o'quvchilarni baholash jarayoni avtomatlashtirilgan va aniqroq bo'ladi. Shuningdek, sun'iy intellekt orqali interaktiv testlar va sinovlar o'tkazilishi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tez va samarali baholash imkonini mavjud.

4. Ta'lim materiallarini yaratish va taqdim etish: SI yaratadigan vositalar o'quv materiallarini shakllantirishda(dinamik darsliklar, video materiallar yoki simulyatsiyalar) qulay vositalardan biri. Bu o'quvchilarning bilimlarni yanada chuqurroq va qiziqarli tarzda o'zlashtirishlariga yordam beradi.


5. Ta'limda inklyuzivlik: SI texnologiyalari bilan maxsus ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni ta'limga moslashtirish yanada oson. Masalan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun audiovizual materiallar, ovozi yordamchilar va matn o'qish tizimlari orqali inklyuziv ta'limni ta'minlash mumkin.

Sun'iy intellekt va xavfsizlik

Ta'limda sun'iy intellektning qo'llanilishi ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak, chunki u o'quvchilarni insoniy aloqalardan ajratmasligi va ta'lim tizimining sifatini pasaytirmasligi zarur. SI yordamida ta'limni yangilash, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish va o'qituvchilarning ishini yengillashtirishda katta potensial mavjud.

Darslarni zamonaviy metodlar va suniy intellekt yordamida tashkil etish o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichini oshiribgina qolmay, mashg'ulotga yuqori kayfiyat bag'ishlaydi. Quyida zamonaviy metodlarimizdan «Choynak»,

«Bilimdon do'ppi», «Sehrli naycha», «Men yozuvchiman» metodlarini ulashmoqchiman.
«Choynak» metodi



Bilamizki, o'zbek xalqi mehmondo'st. 40 daraja issiqda ham issiq choy ichishadi. Mentalitetimizdan kelib chiqib, ushbu metodni darslarda qo'llaymiz.

1. Buning uchun choynak maketini yasaymiz yoki shablonini chiqarib olamiz. Qopqog'i ostiga savol savollarni olib javob berishi kerak. Javob bergan ishtirokchi choyni ichib, chanqog'ini bosadi. Ushbu metodni barcha fanlarda qo'llash tavsiya etiladi.

«BILIMDON DO'PPI»



Har juma milliy libos kiyish kuni. Endilikda darsimizni milliy do'ppilarimiz «tashrifi» bilan boyitamiz. Buning uchun ko'rgazma shablonini chiqarib yoki tayyorlab olamiz. Do'ppilar ostida savol bor. Savollarga javob bersa, do'ppini qo'lga kiritishadi. Bu metodimizni ham barcha fanlarda qo'llash mumkin.



«NAYCHA» metodi

Bizga rangli qog'oz, qaychi, naycha kerak bo'ladi. Naycha – sok ichadigan trubochka.

Ishtirokchilarga qo'llarini ishlatmagan holda naycha yordamida berilgan qog'ozlarni belgilangan maydonga olib borish topshirig'i beriladi. Masalan, tabiiy fanlarda jonli va jonsiz tabiatga doir suratlarni naycha yordamida o'z o'rniga jamlashlari kerak yoki optimist, pessimist qiyofalarni topishi; matematika fanidan juft va toq sonlar, sahih va nosahih, saxiy va xasis sonlar, arab va rim raqamlarini, og'irlik o'lchov birliklarini topishlari, ona tili fanidan so'z turkumlarini o'rganishda qo'l

keladi. Har bir yondashuv ustozning kreativligidan kelib chiqadi.

Biz bugun undan foydalanib, «Kim?», «Nima?» so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni ajratdik.

🍓🍓🍓🍓 qulupnaychalar yordam berdi

Istalgan fandan, kerakli mavzudan mahorat ila foydalanib, mavzuni mustahkamlash mumkin.



«Men yozuvchiman» metodi

O'qituvchi: – Hozir sizga bir shart beraman, bugun ijodkorligingizni bir tekshiraychi, qani.



Buning uchun sizga turli narsalar ketma-ketligi berilgan rasm yuboraman, siz esa ularni bir-biriga bog'lab, qiziqarli hikoya tuzib berasiz. Voqealar ketma-ketligi rasmdagi narsalar ketma-ketligida bo'lishi kerak, masalan:

Bir kuni shu desangiz, katta bir chinor tagida o'tirib xayol surib qolibman. Qani edi, hozir malinali murabbo bo'lsa-yu, men yeb olsam. Ertalabki nonushtada piyoz bilan qovurilgan tuxum yeb, qo'shnimiz sigirining sutini ichganimda ham malinali nimadir yegim kelgandi. Ha mayli dedimda, ro'zaligim esimga tushib, qo'limdagi ensiklopediyamga qarab, undagi ko'm-ko'k meduzaning rasmiga tikilib qoldim. Ajabo, dunyo mo'jizalarga to'la, qani endi chamadonimni to'ldirib, sayohatga otlansam. Qayerga, qanday qilib deysizmi? Albatta raketada emas, samalyotda-da!...

Sun'iy intellekt yordamida darslarni qanday samarali tashkil etamiz?

«Baraban»

harakatlanuvchi metodi

Buning uchun Google qidiruv tizimiga kirib, Flippity deb yoza-siz. Shunda sizga:

1. Flippity.net programmasi chiqadi.

2. Undan Random Name Picker chiqadi va chet el bolalari ismini o'chirib o'quvchilaringiz ismini kiritasiz.

3. Pastda Generate tugmasini bosasiz va harakatlanuvchi baraban paydo bo'ladi. Uni telegram, noutbuk, kompyuterda saqlab olish mumkin.

<https://www.flippity.net/Random-NamePicker.htm>

Namu'na:

Flippity.net: Random Name Picker

<https://flippity.net/rp.php?c=AB-DULLAYEVA%20L.ISMOILO-VA%20R.SAXATOVA%20G.RAJABOVA%20Q.KARIMOVA%20G.HAKIMOVNA%20S.ZAYNITDINOVA%20M.DAVRONOVA%20D.IKROMOVA%20M.KARIMOVA%20Sh.HAMROYEVA%20Sh.MUSTAFOYEVA%20Sh.ISLOMOVA%20N.JALILOVA%20F.HAMROYEVA%20S.FATULLAYEVA%20F.ASLONOVA%20Sh.RAYIMOVA%20M.21-MAKTA-B.&t=Random%20Name%20Picker>

(Davomi 21- betda.)

HAYVONLARGA ATAB QO'YILGAN NOMLAR IMLOSI

(2- sinf)

Darsning maqsadlari:

ta'limiy: o'quvchilarga uy hayvonlariga atab qo'yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishini amaliy mashg'ulotlar bilan tushuntirish, nutqini kengaytirib borishga o'rgatish;

tarbiyaviy: o'quvchilarga hayvonlar ham tabiatning bir bo'lagi ekanini uqtirish, uy va qo'lga o'rgatilgan hayvonlar parvarishi haqidagi bilimlarini boyitish;

rivojlantiruvchi: interaktiv usullar yordamida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga undash.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars jihozi: darslik, elektron doska, uy va yovvoyi hayvonlar niqoblari, ko'rgazmali va tarqatma materiallar.

Darsning borishi.**I. Tashkiliy qism.**

Salomlashishdan so'ng navbatchi axboroti tinglandi. Yangi mavzuni boshlashdan oldin hayvonlar insonlar va o'simliklar kabi tabiatning bir bo'lagi ekanligi, ularga ham parvarish kerakligi tushuntirib o'tiladi.

O'qituvchi: – Bugungi darsimizda «Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar imlosi» mavzusini noan'anaviy tarzda olib boramiz.

Bolajonlar, hayvonot olamini juda yaxshi ko'rasizlar, shundaymi? Ularga nom berish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini muhokama qilish sizlar uchun doim qiziqarli bo'lib kelgan. Bugungi dars jarayonida bergan nomlaringizning yozilish imlosini o'rganib olasiz. Qani darsga tayyormizmi?

O'quvchilar: – Ha albatta.

O'qituvchi: – Aytinglarchi, «Sholg'om» ertagida qanday uy hayvonlari bor edi?

O'quvchilar: Kuchuk, mushuk, sichqon.

O'qituvchi: – Barakalla. O'sha uy hayvonlarga doim g'amxo'rlik qilamiz.

II. Asosiy qism.

Hayvon nomlari doim bosh harf bilan yoziladi. Imlo qoidalariga ko'ra, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar inson ismlari kabi bosh harf bilan yozilishi shart.

To'g'ri: Olapar dalada yugurib yuribdi.

Noto'g'ri: olapar dalada yugurib tug'di.

To'g'ri: Qashqa sigirimiz buzoq tug'di.

Noto'g'ri: qashqa sigirimiz buzoq tug'di.

Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar boshqa umumiy otlardan farqlanadi.

Oddiy hayvon nomlari (sigir, ot, mushuk, it, quyon) umumiy ot hisoblanadi. Lekin ularning shaxsiy nomlari bosh harf bilan yozilishi kerak.

To'g'ri: Olapar bizning kuchugimiz.

Noto'g'ri: olapar bizning kuchugimiz.

To'g'ri: Qashqa bugun yaxshi sut berdi.

Noto'g'ri: qashqa bugun yaxshi sut berdi.

Darslik bilan ishlash.

1- mashq. Uy va yovvoyi hayvonlarning nomlarini ajratish.

(Kreativ metod: «Hayvonlar dunyosiga sayohat» o'yini)



Tashkil etish: bu mashq o'quvchilarning hayvonlarni tasniflash ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi. Mashq davomida uy va yovvoyi hayvonlarni ajratish, ularning yashash joylari va xususiyatlarini tushuntirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'yin qoidalari:

1. O'quvchilar doskadagi yoki plakatdagi rasmlarni ko'rib, hayvonlarni ikkiga ajratishlari kerak.

2. Har bir o'quvchi o'ziga berilgan hayvon nomini o'qib, uni mos bo'lgan qismga yopishtiradi yoki joylashtiradi:

Uy hayvonlari – ferma tomoniga.

Yovvoyi hayvonlar – o'rmon tomoniga.

3. O'quvchilarga har bir hayvon haqida kichik tavsif berish topshiriladi:

1. «Bu hayvon qayerda yashaydi?».

2. «Bu hayvon odamlar tomonidan boqiladimi yoki yovvoyi tabiatda yashaydimi?».

3. «Bu hayvon odamlarga qanday foyda keltiradi?».

Hayvonlarni ajratish bo'yicha javoblar:

Uy hayvonlari:

It

Ot

Sigir

Qo'y

Kurka

Yovvoyi hayvonlar:

Fil

Sher

Bo'ri

Qoplon

Burgut

Ushbu mashq o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, o'rganilgan bilimlarni hayotda qo'llash imkoniyatini ham beradi.

2-mashq: Matndan hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarni topish.

(Kreativ metod: «Izlanuvchi o'quvchi»).

Tashkil etish: bu mashq orqali o'quvchilar matndan hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarni aniqlash, ularning imlo qoidalariga rioya qilish va ularga oid gaplarni yozib olish ko'nikmasini shakllantiradilar. Ushbu metod o'quvchilarning matn ustida ishlash, tanqidiy fikrlash va mustaqil tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Javoblar:

Matnda uchragan hayvon nomlari:

Govmish

Qoraxol

Matndan ajratib yoziladigan gaplar:

Govmish sigirim tug'di.

Men unga Qoraxol deb nom qo'ydim.

Muhokama qilish uchun savollar:

Nima uchun **sigir Govmish** deb nomlangan?

Nima sababdan **buzoqqa Qoraxol** deb nom berilgan?

Siz o'z hayvoningizga qanday nom qo'yadingiz? Nima uchun?

3- mashq: rasmdagi hayvonlarga nom qo'yish va ular haqida gap tuzish.

(Kreativ metod: «Ijodiy yozuvchilar» o'yini)

Tashkil etish: bu mashq o'quvchilarning kuzatuvchanligini, ijodiy fikrlashini va tasviriy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar hayvonlarning tashqi ko'rinishi va xatti-harakatlarini kuzatib, ularga mos nom qo'yish va bu nomni izohlash vazifasini bajaradilar.

**O'yin qoidalari:**

O'quvchilar har bir hayvonga o'zlari mos deb hisoblagan nomni qo'yadilar.

Berilgan nomni nima uchun tanlaganliklarini tushuntiradilar.

Har bir o'quvchi berilgan nom bilan hayvon haqida bitta gap tuzadi.

Eng qiziqarli va mantiqiy nomlar tanlab olinadi va doskaga yoziladi.

Hayvonlarga qo'yilgan ehtimoliy nomlar va izohlari:

1. Uyquchi ayiq.

Nom: Uyqibek.

Izoh: Chunki ayiq choyshabga o'ralib, shirin uyquga ketgan.

Gap: Uyqibek kun bo'yi uxlab, faqat kechasi ovga chiqadi.

2. O'z hovlisida yotgan kuchukcha.

Nom: Qo'ng'iroqcha.

Izoh: Chunki u har qanday shovqinga ingichka ovozdavovillab javob beradi.

Gap: Qo'ng'iroqchanning ovozi hammamizni uyg'otdi.

3. Daraxt shoxida sakrayotgan maymun.

Nom: Chayqalchi.

Izoh: Chunki u doimo daraxtlar orasida sakrab yuradi.

Gap: Chayqalchi shoxdan shoxga sakrab, shirin mevalarni terib yeydi.

III. Mustahkamlash.

Rasm asosida so'z boyligini oshirish – hayvonlarning tashqi ko'rinishiga qarab ularga mos nom berish.

(Kreativ metod: «Tasviriy tafakkur ustalari»)

Tashkil etish: bu mashq o'quvchilarning kuzatuvchanligi, so'z boyligini oshirish, tasviriy tafakkurini rivojlantirish va ijodiy fikrlashini kuchaytirish uchun mo'ljallangan. O'quvchilar hayvonlarning tashqi ko'rinishi, ranglari va xatti-harakatlariga qarab ularga mos nom berish orqali so'z boyligini kengaytiradilar.

O'yin qoidalari:

1. O'quvchilarga turli hayvonlarning rasmlari ko'rsatiladi.

2. Har bir hayvonning tashqi ko'rinishi, rangi, kattaligi va harakati muhokama qilinadi.

3. O'quvchilardan rasmdagi hayvonlarga mos nom berish so'raladi.


4. Ular tanlagan nomni tushuntirib berishadi:

«Nega aynan shu nomni tanladingiz?».

«Bu hayvon qanday harakat qiladi?».

«Bu nom hayvonning qaysi xususiyatini ifodalaydi?».

O'quvchilar hayvonlar uchun asosiy belgilarga ko'ra mos nomlar tanlaydilar va bu nomlarni mantiqiy asoslashadi.

**IV. Uyga vazifa:**

O'qituvchi: – Sizga qaysi uy hayvonlari yoqadi? Ularni qanday nomlagan bo'ladingiz?

U haqida kichik hikoya yozing.

Qunduz TOKIMBETOVA,

Ellikqal'a tumanidagi 21- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

DOIRA VA KONUS

(4- sinf IV chorak)

Darsning maqsadlari:

ta'limiy: o'quvchilarni doira va konus bilan tanishtirish, bilim ko'nikma hosil qilish;

F.K-1. O'rganilgan matematik tushunchalarni qabul qila oladi, tegishli misollar keltira oladi.

tarbiyaviy: sport bilan shug'ullanishni targ'ib qilish, ish bajarishda tozalikka, ozodalikka, tartibga rioya qilishga o'rgatish;

T.K-3. O'rganilgan mavzu doirasida o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini qismlarga ajrata olish; o'qituvchi bilan birgalikda masala yechimiga yaqinlashish darajasini baholay olish va zarur hollarda o'z faoliyatini to'g'iray olish.

rivojlantiruvchi: o'quvchilarda matematik nutq, xotira, tafakkurni, yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish. O'quvchilarning faolligini oshirish, olingan bilimlarini hayot bilan bog'lash. **F.K-3.** Sodda real hodisalarni matematik tilda ifodalash usullarining samarali ekanligini tushuna olish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: savol-javob, tushuntirish.

Darsning jihozi: mavzuga oid ko'rgazma, tarqatmalar, kitob.

Kutiladigan natijalar. O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi. O'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida barcha o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi. O'quvchilar tomonidan xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishni o'rgatadi. **O'quvchi:** yangi bilimlarni egallaydi. Yakka va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi, va eslab qolish qobiliyati kuchayadi, unda insoniy fazilatlar shakllanadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchi axborotini tinglash.

O'qituvchi: – Hayrli tong, bolajonlar.

O'quvchilar: Hayrli tong!

O'qituvchi: – Bugun kim navbatchi?

O'quvchi: – Men bugun navbatchiman. Mening ismim _____.

O'qituvchi: – Kim yo'q?

O'quvchi: – Hamma o'quvchilar shu yerda.

O'qituvchi: – Bolajonlar, matematika fani nimani o'rgatadi?

O'quvchilar: – Sanashni, hisoblashni,

Fikrlashni, o'ylashni.

Masalalar yechishni,

Noma'lumni topishni.

Og'irlik, uzunlikni,

Vaqt, masofa, tezlikni.

Ko'paytirish, bo'lishni,

Perimetr, yuzani.

Topishni, taqqoslashni,

Burchak, tomon, shaklni.

O'rgatar matematika,

Bel bog'lab doim tikka.

O'qituvchi: – Darsning oltin qoidalari bilan tanishamiz. Ularni birma-bir sanab o'tamiz va ularga rioya etamiz. Matematika faniga hissa qo'shgan olimlar haqida ma'lumotlar tinglaymiz.

OLTIN QOIDALAR

- Fikrlashni boshlay olish
- Dars vaqtida o'rnatilgan qoidalariga rioya bo'lish
- O'qov qarakatni vaqtida olib boshlash
- Tasavvur ma'nodagi qoidalariga amal qilish
- Qiyinliklarni hal qilish
- Yarqinlikni yaratish

Matematika faniga hissa qo'shgan olimlar

BUYUK MATEMATIK OLIMLAR

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash.

O'quvchilarni bilim va ko'nikmalari tekshiriladi, savollar orqali uyga berilgan vazifa so'ralib, o'quvchilar baholanadi.



9. Ifodalarni hisoblang. Ustunlar ustiga gumbaz ishlangan me'moriy inshoot qanday ataladi?

A $623 + 347 = 970$
 D $903 - 335 = 568$
 N $2784 : 3 = 928$

O $700 - 187 = 513$
 R $78 \cdot 9 = 702$
 T $832 : 4 = 208$

702	513	208	513	928	568	970
R	O	T	O	N	D	A



10. Samarqandga kelgan sayyohlar Registon maydonini tomosha qilishdi. Ular Ulug'bek madrasasida 1 soat 45 daqiqa, Sherdor madrasasida undan 15 daqiqa ko'proq, Tillakori madrasasida esa Sherdor madrasasidagidan 20 daqiqa ko'proq vaqt bo'lishdi. Sayyohlar Registon maydonida qancha vaqt bo'lishgan?

Ulug'bek madrasasi 1 soat 45 daqiqa, **Sherdor madrasasi** 1 soat 45 daqiqa + 15=2 soat, **Tillakori madrasasi** 2 soat + 20 daqiqa =2 soat 20 daqiqa, **umumiy** 1 soat 45 daqiqa + 2 soat + 2 soat 20 daqiqa = 6 soat 5 daqiqa.

Guruh nomlari



«Soat» metodik o'yini

O'qituvchi: – soatlarga yozilgan misollarga javob toping va ularni bolakayga bering. Har bir to'g'ri javob uchun bittadan soatni olasiz. Topshiriqni guruhlar o'rtasida musobaqa tarzida tashkil etamiz.



Soat metodik o'yini

396 + 4004 170 412 : 3 129 370 : 5

7 085 : 11 3 045 : 9 129 370 : 5

16 250 : 130 170 412 : 3 9 28 : 42 3

9 31 : 50 3 68 400 : 450 5 76 : 507

III. Yangi mavzu bayoni.

Yondosh mavzu: vaqtni o'lchash.

Doira, uchburchak, aylanish.



Yondosh mavzu haqida ma'lumot:

Vaqt olamning fizik xarakteristikasi bo'lib, olam holatining ketma-ket o'zgarishida aks etadi.

Vaqt: 1) materiyaning asosiy yashash shakllaridan biri (qarang Fazo va vaqt). 2) tabiatdagi biror davriy hodisaga, masalan, Yerning o'z o'qi atrofida aylanish davriga nisbatan hisoblanadigan o'lchov birligi.

(Davomi 22–23- betlarda.)

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA INDIVIDUAL TA'LIM

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida individual yondashuvning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, bilish sur'ati va qobiliyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan differensial yondashuv asosida individual ta'lim boshlang'ich ta'limning zamonaviy modeli sifatida qaralmoqda.

Differensial yondashuv – bu o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayoni tashkil etish usulidir. Bu yondashuvda o'quvchilarning bilim darajasi, o'quv uslubi, qiziqishlari, ijtimoiy va psixologik holati asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh jihatidan faol, o'rganishga qiziqqon bo'lib, har birining idrok qilish darajasi turlicha. Shu bois ularning ehtiyojlariga mos ravishda ta'limni differensiallash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, «o'rta», «tez o'zlashtiruvchi» va «sust o'zlashtiruvchi» guruhlariga ajratish orqali mashg'ulotlarda individual yondashuvni qo'llash mumkin.

Differensial yondashuvning quyidagi turlari mavjud:

- darajaviy – topshiriqlarning murakkablik darajasini o'quvchining bilimiga moslab berish;
- qiziqishga asoslangan – bolalarning sevimli mashg'ulotlari asosida o'quv faoliyatini tashkil etish;
- faollik darajasi bo'yicha – faol va sust ishtirokchilar uchun turlicha yondashuv;
- aqliy imkoniyatlariga qarab – bilimlarni o'zlashtirish tezligi asosida yondashish.

Bunday yondashuv o'quvchilarni o'z ustida ishlashga, mustaqil fikr yuritishga va salohiyatini ro'yobga chiqarishga undaydi. Bu esa nafaqat bilim sifatining oshishiga, balki o'quvchilarda shaxsiy motivatsiya va mas'uliyat hissining shakllanishiga ham xizmat qiladi. Differensial yondashuvni samarali amalga oshirishda metodlar namunasi:

«Bilim avtobusi» metod



Bu metod orqali o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasini hisobga olgan holda ularni «avtobus vagonlari»ga joylashtiradi. Har bir vagon – bu o'ziga xos bilim bosqichidir. O'quvchi o'zining bilim darajasiga qarab mos vagonni tanlaydi va unga mos topshiriqlarni bajaradi.

Metod maqsadi:

- o'quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olish;
- har bir bola o'z bilim darajasiga mos topshiriqni bajarishini ta'minlash;
- o'quvchilarni o'z ustida ishlashga, rivojlanishga undash;
- raqobat emas, rivojlanishni rag'batlantirish.

Asosiy g'oya

Vagon nomi	Bilim darajasi	Tavsiya etilgan topshiriq turi
1. Old vagon (1- daraja)	Yuqori darajadagi o'quvchilar	Murakkab topshiriqlar, izlanish
2. O'rta vagon (2- daraja)	O'rta darajadagi o'quvchilar	Standart topshiriqlar
3. Orqa vagon (3- daraja)	Qo'shimcha yordamga muhtoj o'quvchilar	Soddalashtirilgan topshiriqlar

Qo'llash bosqichlari:

I. Tayyorlov bosqichi:

- o'quvchilarning umumiy bilim darajasi baholanadi;
- har bir darajaga mos topshiriqlar to'plami tuziladi.

II. Tushuntirish bosqichi:

- o'quvchilarga metod tushuntiriladi, har bir vagon izohlanadi.

III. Amaliy bosqich:

- o'quvchilar mos vagonni tanlaydi, topshiriqlarni bajaradi.

IV. Rag'batlantirish:


- muvaffaqiyatli bajarganlar yuqori vagonlarga o'tish uchun taklif etiladi.

Ko'rgazmali vositalar:

- rangli vagon rasmlari yoki avtobus maketi;
- o'quvchi nomi yozilgan kartochkalar;
- rangli topshiriq varaqalari.

Afzalliklari:

- har bir bola o'z darajasiga mos topshiriqni tanlaydi;
- rivojlanishga motivatsiya ortadi;
- sayohat tarzida bilimlar egallanadi;
- differensial yondashuvga mos keladi.



«Kodli eshiklar» metodi

Bu o'quvchilarning individual bilim darajasini hisobga olib, ularga turli darajadagi topshiriqlarni eshiklar orqasiga yashirilgan shaklda taqdim etish metodidir. Har bir eshik ostida turli darajadagi topshiriqlar mavjud bo'ladi. O'quvchi qaysi darajadagi topshiriqqa tayyor bo'lsa, shu eshikni ochadi.

Metod maqsadlari:

- o'quvchilarning mustaqil tanlov asosida topshiriq bajarish ko'nikmasini shakllantirish;
- har bir bolaning individual o'zlashtirish darajasini inobatga olish;
- o'quv jarayonini o'yin bilan uyg'unlashtirish;
- o'z ustida ishlashga, bilimni mustahkamlashga undash.

Asosiy g'oya:

- o'qituvchi 3 ta yoki undan ko'p kodli eshik tasvirini tayyorlaydi;
- har bir eshik ostida o'ziga xos murakkablikdagi topshiriq yashiriladi;
- o'quvchi eshikni tanlaydi va ichidagi topshiriqni bajaradi.

Qo'llash bosqichlari:

- Tayyorlash:**
 - dars mavzusi asosida 3 xil darajadagi topshiriqlar tayyorlanadi;
 - har bir topshiriq «kodli eshik» rasmining orqasiga joylanadi (kartochkada yoki ekranda).
- Tanishuv:**
 - o'quvchilarga har bir eshik nimani anglatishi tushuntiriladi;
 - tanlov erkinligi taqdim etiladi.
- Tanlash va bajarish:**
 - o'quvchilar o'z darajasiga mos keladigan eshikni tanlab, topshiriqni oladi;
 - topshiriqni yakka yoki juftlikda bajaradi.
- Tahlil:**
 - bajarilgan ishlar ko'rib chiqiladi;

- eshik tanlashdagi to'g'rilik va topshiriq sifati baholanadi.

Ko'rgazmali vositalar:

Afzalliklari: kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko'nikmasini shakllantiradi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o'rgatadi, o'qituvchiga o'quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

Foydalanish doiralari: uy ishini tekshirish hvaqtida, tabiiy va aniq fanlarda mavzuni mustahkamlashda.

«O'ylab top» o'yinini
3-, 4- va undan yuqori sinf o'quvchilari bilan o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Bu o'yin samarali natija berishi uchun o'quvchilar ko'p ma'lum bir kasbga oid so'zlar olinib, boshlovchi biron kasb egasiga taqdim qilib harakat qiladi, o'yin ishtirok-

chilari bu harakat qaysi kasbga oid so'zni ifodalashini topishlari kerak. Berkitilgan so'z kartochkaga yozilgan bo'lib, so'zni to'g'ri topgan o'quvchiga ko'rsatiladi. O'yinda javobni to'g'ri topgan o'quvchilar g'olib bo'ladi.

«Kim ko'p so'z biladi?» o'yini

Ushbu o'yin ham o'quvchilarning lug'at boyligini o'stiradi. Buning uchun sinf 2 guruhga bo'linadi va har bir guruh uchun alohida topshiriq beriladi. 1- guruh o'quvchilariga ikki tomoni bir xil unli bilan yoziladigan, 2- guruhga esa ikki tomoniga bir xil undosh yoziladigan so'zlarni doskaga yozish topshiriladi. Masalan: 1-guruh ikki, alla; 2-guruh qiziq, katak kabi. Har bir guruh o'quvchilari birma-bir chiqib so'zlarni yozadilar. So'z topolmay to'xtagan guruh yutqazgan hisoblanadi.

«So'nggi axborot» o'yini

3- sinfdan boshlab, har darsning boshlanishida o'tkazib turish yaxshi natija beradi. O'quvchilar hafta davomida o'zlarini eshitgan, ko'rgan yangiliklari xususida so'zlab beradilar. Bu ish turi o'quvchilar bog'lanishli nutq malakalarini rivojlantirishga, so'z so'rash, so'zga chiqish, bir-birining fikrini davom ettirish, o'zini xuddi suxbandonlar, jurnalistlar kabi tutish odatini o'rganishga yordam beradi. Bu o'yin o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga, yangiliklarni o'zbek tilida eshitish, ularni birinchi bo'lib so'zlab berishga intilish, chiroyli va bexato gapirishni o'rgatishga sabab bo'ladi.

«Rasmlarni to'g'ri joylashtirish» usuli.

Ma'lumki, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan «O'zbek tili» darsliklarida adabiy o'qish uchun turli she'rlar, hikoyalar, ertaklar ham berib boriladi. Ushbu ertak va hikoyalar o'qib bo'lingach, ularni takrorlash uchun ushbu metoddan foydalanish yaxshi natija beradi. Buning uchun har xil qilib doskaga terib qo'yiladi. O'quvchilar rasmlarni mavzuni mansoq ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiladigan shaklda qayta terib chiqadilar va ertak mavzusini qisqacha so'zlab beradilar.

«Poyezd» metodi

Poyezd vagonlari ko'rinishidagi alohida qog'ozlarga bitta gapning har bir so'zi alohida-alohida yoziladi va aralashtirib yuboriladi. O'quvchilar vagonlarni shunday terishi kerakki, natijada to'g'ri gap hosil bo'lsin. Masalan: ikkinchi, bizning, qavatda, joylashgan, sinfimiz. To'g'ri javob: Bizning sinfimiz ikkinchi qavatda joylashgan.

«Eslab qol» o'yini

O'quvchilarga kichik bir matn o'qib eshittiriladi. O'quvchilar tayanch so'zlarni yozib boradilar, so'ngra ushbu so'zlar yordamida tinglangan matnni tiklaydilar. Kimning matni to'liq va to'g'ri tuzilsa, o'sha yuqori bahoga sazovor bo'ladi. Bu o'yin o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

«Unlilar» o'yini

Bu nomni istalgan mavzu asosida o'zgartirish mumkin. Katta ekran orqali tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ixtiyoriy matn namoyish qililib, undan matndagi unlilar miqdorini imkon qadar tezroq va to'liqroq aniqlash topshiriladi. Chunki bu mavzu nisbatan sodda hisoblanadi.

«O'zing top» o'yini

Proyektor orqali o'tilgan mavzular asosida ixtiyoriy ertakdan biron tasvir ko'rsatiladi. 3 nafar o'quvchi taklif qilinadi va tasvirga teskari qaragan holda turadilar. Qolgan o'quvchilar ertak bilan bog'liq bittadan ma'lumot aytdadilar. O'quvchilar bilim darajasi-ga ko'ra avval yoki keyin ertakning nomini aytishlari mumkin.

«Kim nima qiladi?» o'yini

O'quvchilar 2 guruhga bo'linadi, doska yoniga har bir guruhdan bittadan o'quvchi taklif etiladi. Doskaga birinchi guruh ishtirokchisi «kim?» so'rog'iga javob bo'ladigan, ikkinchi guruh ishtirokchisi «nima qiladi?» so'rog'iga javob bo'ladi-gan so'zlarni yozadi. Natijada yig'iq gaplar vujudga kelishi kerak. Qolgan ishtirokchilar esa gaplarni daftarlariga ko'chirib yozadilar. Bunday o'quvchilarning yozma savodxonligiga ham hisobga olinadi. Qaysi gu-

ruh a'zosi topshirigini bexato bajarsa, shu guruhga «rag'bat kartochkasi» topshiriladi.

«Zanjir» o'yini

O'qituvchi birinchi bo'lib so'z aytdi. O'quvchilar bu so'z qaysi harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlanuvchi so'zni topadilar. O'yin shu tarzda davom etadi. Bunday o'yinlarning o'tkazilishi o'quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Dam olish daqiqalarida yoki darsni boshlashdan oldin o'quvchilar diqqatini to'plab olish maqsadida foydalanish mumkin. Masalan: tabiat, maymunjon, non, nok, kitob, botir, ruchka.

«Topag'on» o'yini

O'qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O'quvchilar shu belgini o'ziga jam qilgan predmetlar nomlarini yozadilar, eng ko'p javob topgan o'quvchilar g'olib sanaladi. Bu o'yin orqali o'quvchilarning so'z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

Masalan: 1- variant: savol: nima oq rangda? (bulut, parda, qog'oz qor.) 2- variant: savol: nima yumshoq? (non, paxta, xamir, yosti.) 3- variant: savol: Nigora nima qilayapti? (kitob o'qiyapti, o'ynayapti va h.k.)

Xulosa o'rnida inklyuziv sinflarni boshlang'ich ta'limda inklyuziv sinflarni tashkil qilish va ularning samaradorligiga erishish uchun inklyuziv ta'limning metodikasini ishlab chiqish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv ta'limni amalga oshirish metodikasini tarkib toptirish va oliy pedagogik ta'lim muassasalarida defektolog, surdopedagog, logoped mutaxassisligiga ega boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlash bugunning talabi bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalishda xalqaro tajribalarini o'rganish va tatbiq etish qo'yilgan maqsadlarni yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Umida OSTONOVA,
Kogon tumanidagi
1- maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi.



Volontyorlik – bu odamning o'z ixtiyori bilan, pul yoki boshqa moddiy mukofot kutmasidan, jamiyat, atrof-muhit va boshqalarga yordam berish uchun qiladigan faoliyatidir.



VALONTYORLIK HARAKATINI BOSHLANG'ICH SINFLARDA SHAKLLANTIRISH

Masalan, volontyorlar ko'ngilli ravishda xayriya tadbirlarida ishtirok etadi, bemorlarga g'amxo'rlik qiladi, tabiatni asraydi yoki ta'lim sohasida yordam ko'rsatadi. Volontyorlik ko'pincha insonparvarlik, jamoatchilik manfaatlarini yoki shaxsiy tajriba o'rnatish maqsadida amalga oshiriladi.

Dunyoda har bir xalqning o'ziga xos an'analari, milliy qadriyatlar bor. Lekin ayrim insoniy qadriyatlar borki, u faqat bitta xalqqa tegishli bo'lmaydi. Biz buni umuminsoniy qadriyatlar deymiz.

Shunday qadriyatlardan biri bu elparvarlik va fidoyilikdir. Yillar davomida ularning rivojlanishi katta ijtimoiy harakat – volontyorlik harakatini vujudga keltirdi.



O'quvchilarni yoshlikdan volontyorlikka yo'naltirish juda muhim va ijobiy ishdir. Bu orqali ular jamiyatga foydali bo'lishni, mas'uliyatni va hamjihatlikni o'rganadi. Buning uchun bir nechta samarali usullarni ko'rib chiqamiz:

1. Ta'lim va ma'lumot berish:
– maktablarda volontyorlik haqida maxsus darslar yoki seminarlar tashkil qilish;
– volontyorlik nima ekanligi, uning jamiyatdagi ahamiyati va foydasi haqida o'quvchilarga tushuntirish;
– mashhur volontyorlar haqida hayotiy misollar keltirish.

2. Amaliy tajriba yaratish:
– o'quvchilarga kichik volontyorlik loyihalarida ishtirok etish imkoniyatini berish (masalan, maktab hududini

tozalash, kitob jamg'armasi yaratish, yosh bolalarga yordam ko'rsatish);

– o'quvchilarni mahalliy jamg'arma yoki tashkilotlar bilan bog'lash.

3. Rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash:

– volontyorlikda faol qatnashgan o'quvchilarni maktabda e'tirof etish, sertifikatlar berish;

– doimiy ravishda o'quvchilarni rag'batlantiradigan va ularni qo'llab-quvvatlaydigan guruhlar yoki klub tashkil etish.

4. Oila va jamiyat bilan hamkorlik:

– ota-onalar va jamoatchilikni volontyorlik harakatlari haqida xabar-dor qilish, ularni ham jalb etish;

– volontyorlik faoliyatini jamoa uchun umumiy qadriyat sifatida shakllantirish.

5. Axborot texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yordamida:

– ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar uchun volontyorlik bo'yicha platformalar yaratish va faol targ'ib qilish;

– onlayn volontyorlik loyihalariga jalb qilish.

Jismoniy kamchiligi bor o'quvchilarga volontyorlik orqali yordam berish – bu ularning ta'lim olish, ijtimoiy hayotga faolroq qo'shilishlari va mustaqil bo'lishlariga katta hissa qo'shadi. Bunday yordam na-

faqat moddiy yoki texnik tomondan, balki ruhiy va ijtimoiy jihatdan ham qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Volontyorlik orqali jismoniy kamchiligi bor o'quvchilarga yordam ko'rsatish usullari:

1. Ta'lim jarayonida yordam:
– darslarda ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan qo'shimcha yordam berish (masalan, kitoblarni o'qishda, yozishda);

– maxsus o'quv materiallari va texnologiyalarni taqdim etishda ko'maklashish.

2. Kundalik hayot va harakatda yordam:

– maktab va maktabdan tashqari joylarda harakat qilishda yordam berish (masalan, darsga kirishda, sinfxonaga borishda);

– maxsus jihozlar, stullar yoki boshqa kerakli asbob-uskunalarini joylashtirishda yordam berish.

3. Ijtimoiy integratsiya va do'stona muhit yaratish:

– o'quvchilarni jismoniy kamchiligi bor bolalar bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirishga jalb qilish;

– ularni jamoaviy o'yinlar va tadbirlarga qo'shilishlari uchun rag'batlantirish.

4. Ruhiy va motivatsion qo'llab-quvvatlash:

– o'quvchilar bilan do'stona

suhbatlar tashkil etish, motivatsion so'zlar aytish, ular bilan birga vaqt o'tkazish;

– ularni qiyinchiliklarga qaramay, o'z imkoniyatlarini kengaytirishga undash.

5. Maxsus tadbirlar va loyihalar tashkil qilish:

– volontyorlar bilan birga ijtimoiy tadbirlar, o'yin-kulgi va sport musobaqalari o'tkazish;

– maxsus ko'ngilli yordamchi sifatida o'quvchilarga individual e'tibor berish.

6. Oila va maktab hamkorligi:

– ota-onalar va maktab xodimlari bilan birga o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash.

O'quvchilarimda boshqalarga beminnat ko'mak berish, jamiyatda faolliklarini oshirish, jipslashish, odob-axloq normalarini bilish, ezgu g'oya ostida birlashish kabi ko'nik-

malarni shakllantirish maqsadida volontyorlik harakatiga birinchi qadami qo'ydik. Barchamiz birgalikda sobiq o'quvchim – imkoniyati

ahdlangan, 1- guruh nogironi Ah-cheklangan, Muborakxonni borib madxonova Muborakxonni borib lahzalarga boy bo'ldi. Uyda zerikib o'tirgan Muborakxon juda quvondi.

O'quvchilarimni zimdan kuzatarkan-



man, ularda mehr-shavqat, muruvvatlilikni ko'rdim.

Bu loyihani yana davom ettirmoqchiman: volontyor sifatida boshqalarga xoh jismoniy, xoh ma'naviy ko'mak bergan inson o'z-o'zini tarbiyalaydi, ishidan ruhiy kuch oladi, zavqlanadi. Volontyorlik harakatidan foydalangan inson esa boshqalarga kerakligini his qiladi, motivatsiya oladi, hayotga intilishi oshadi.

Shunday ekan, biz ustozlar volontyorlik harakatini o'quvchilarimizga singdirishimiz kerak, deb hisoblayman. Zero mehr, oqibat yo'qolib borayotgan bu shiddatli zamonda biz bunday harakatga muhtojmiz.

Dildora TURSUNOVA,
Toshloq tumanidagi
4- maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi.



OTA-ONALAR MAJLISINI JONLANTIRUVCHI TARBIYAVIY TRENINGLAR: METOD VA SAMARA

So'nggi yillarda ota-onalar majlisini jonlantirish maqsadida interaktiv metodlardan, xususan trening mashg'ulotlaridan foydalanish tajribasi kengaymoqda. Bunday treninglar ota-onalarning farzandlari bilan emotsional bog'liqligini mustahkamlaydi, sinfda ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi.

Ushbu maqolada ota-onalar majlisida qo'llanilishi mumkin bo'lgan qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega trening mashg'ulotlari misolida, metod va yondashuvlar tahlil etiladi hamda ularning amaliy samarasi yoritiladi.

«Sehri so'zlar» treningi

Mazkur trening odatda majlisning boshida salomlashuv va tanishtiruv jarayonidan so'ng o'tkaziladi. O'qituvchi ota-onalardan bir-birlariga mehr bilan yuzlanib, samimiy tilaklar bildirishni so'raydi. Bu jarayonda «Sizga omad», «Sog' bo'ling», «Farzandlaringiz ilmi bo'lsin» kabi mehri ifodalovchi so'zlardan foydalanish tavsiya etiladi.



«Sehri so'zlar» treningi orqali ota-onalar o'rtasida iliq munosabatlar shakllanadi, kayfiyat ko'tariladi, jamoada o'zaro hurmat va birdamlik muhiti mustahkamlanadi. Ayniqsa, ota-onalar orasidagi ijtimoiy psixologik masofani qisqartirib, ularning maktab jamoasiga yaqinlashuvini ta'minlaydi.

«Mening qalbm» treningi

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi ruhiy yaqinlikni mustahkamlash, o'zaro tushunishni chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiladigan qiziqarli va ta'sirchan treninglardan biri bo'lib, u ikki bosqichda amalga oshiriladi.

1- bosqich – sinfda o'tkaziladi. O'qituvchi oldindan

yurak shaklidagi shablonlarni tayyorlaydi va ularni o'quvchilarga taqdim etadi. So'ng quyidagi topshiriq beriladi:

«Tasavvur qiling, bu yurak – sizning qalbingiz. Endi esa qalbingizda siz uchun eng qadrli insonlar uchun joy ajrating va ularning ismini yozing».

Bolalar ushbu topshiriqni bajargach, yurakchalar yig'ib olinadi va sir saqlanadi.

2- bosqich – ota-onalar majlisida o'tkaziladi. Majlis davomida ota-onalarga ham aynan shunday yurak shaklidagi shablonlar tarqatiladi. Ularga ham shunday topshiriq beriladi:

«Iltimos, qalbingizdagi eng yaqin insonlar uchun joy ajrating. Kimlar siz uchun muhim – ularni yozing».

Ota-onalar ishni bajargach, o'qituvchi ularni quyidagicha yo'naltiradi:

«Endi farzandingizning qalbi bilan tanishing va o'zingiznikini bilan solishtirib ko'ring. Qaysi joylar o'xshash? Qayerda farqlilik bor?».

Trening yakunida o'qituvchi quyidagicha xulosa qiladi:

«Farzandingizning qalbi – sizning eng bebaho boyligingiz. Agar qalblarda bo'shliqlar mavjud bo'lsa, ularni faqat mehr, e'tibor va tushunish bilan to'ldirish mumkin».



Bu trening orqali ota-onalar farzandlarining ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va qadriyatlariga haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladilar. Eng muhimi, ota-onalar va farzandlar orasida samimiylik kuchayadi.

«Minnatdorchilik maktubi» treningi

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish, bolalarda minnatdorchilik tuyg'usini

uyg'otish va uni samimiy tarzda ifoda etishga o'rgatishda ushbu trening ayni muddao bo'la oladi.

Treningni o'tkazish uchun tayyorlanadigan materiallar:

- rangli qog'ozlardan yasalgan konvertlar;
- o'g'il bola va qiz bola ko'rinishidagi shablonlar;
- o'quvchilarning nigohlari tasvirlangan fotosuratlar;
- yelim va turli rangli qalam, flomasterlar.

1- bosqich – sinfda o'tkaziladi. O'qituvchi avvaldan tayyorlangan o'g'il bola va qiz bola shaklidagi shablonlarni o'quvchilarga taqdim etadi. So'ng, ularga quyidagicha topshiriq beradi:

«Bu sizning shaxsiy qahramoningiz. Endi uning ichiga ota-onangizga atab minnatdorchilik mazmunidagi maktubingizni yozing. Ularni quvontiradigan, yuragiga yetib boradigan so'zlar bilan murojaat qiling».

Bolalar o'z shablonlarini bezatadilar, bo'yaydilar va samimiy maktublarini yozib yakunlaydilar. Tayyor bo'lgan shablonlar o'qituvchi tomonidan rangli konvertlarga joylanadi. Har bir konvert ustiga o'sha maktub muallifi – o'quvchining ko'z nigohi aks etgan surat yopishtiriladi.

2- bosqich – taqdimotga tayyorgarlik. Ota-onalar majlisidan bir kun oldin barcha konvertlar sinf doskasiga yoki alohida stendga tartib bilan yopishtirib chiqiladi.

3- bosqich – ota-onalar majlisidagi yakuniy bosqich. Majlis yakunida o'qituvchi quyidagicha murojaat qiladi:

«Aziz ota-onalar, farzandlaringiz sizlarga qalbdan chiqqan minnatdorchilik maktublarini tayyorlashdi. Biroq, ularni topish uchun kalit bitta – o'sha mehr bilan boqayotgan ko'z nigohlaridir. Maktubingizni farzandingizning nigohi orqali toping!».

Farzandlarining samimiy minnatdorchiligini o'qigan ota-onalarning qalbida faxr va quvonch uyg'onadi.

«Minnatdorchilik maktubi» treningi – bolalar va ota-onalar o'rtasidagi ruhiy ko'prikn mustahkamlovchi, tarbiyaviy ahamiyati yuqori, nozik tuyg'ularni o'rgatuvchi eng nafis metodlardan biridir.



«Farzandingizning tilaklarim» treningi O'quv yilini iliq, samimiy va motivatsion tarzda boshlashda ota-onalar va o'quvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni

mustahkamlovchi kichik, ammo mazmunli treninglardan biri. Ushbu trening ota-onalarning farzandlariga bo'lgan mehrini, tilagini bolalarga yetkazish orqali darslarga ruhiy tayyorgarlik yaratadi.

Treningni o'tkazish tartibi.

O'qituvchi avvaldan beshta barmoqli qo'l shaklidagi shablonlarni tayyorlaydi. Ota-onalar majlisining yakuniy bosqichida ushbu shablonlar tarqatiladi. Ularga quyidagicha topshiriq beriladi:

«Qo'lning o'rtasiga farzandingizning ismini yozing. Har bir barmoqchalarga esa farzandingizga tilaklar yozing: masalan, a'lo kayfiyat, omad, yangi bilimlar...».

Yozilgan shablonlar o'qituvchi tomonidan yig'ib olinadi va saqlanadi.

O'quv yilining ilk darsida o'qituvchi har bir o'quvchiga ularning ota-onasi tomonidan yozilgan «besh barmoqli» tilak shablonini topshiradi.

O'quvchilar ushbu shablonni nazorat uchun tutilgan kundaliklariga yopishtiradilar. O'quv yili davomida o'quvchilar ushbu tilaklarni o'qib, ijobiy energiya, ruhiy barqarorlik va quvvat oladilar.




Nodira USMANOVA,
Uchtepa tumanidagi O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tasarrufidagi Respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

MILLAT KELAJAGI MILLIYLIGIMIZDA

O'zbek do'ppisi va «Qaynoq nuqtalar» metodi

Har bir millatning kelajagi uning bugungi kundagi qadriyatlarini, urf-odatlarini va eng muhimi, o'zligini anglashiga bog'liq. Ayniqsa, globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan davrda milliy o'zlikni saqlab qolish va uni yosh avlodga singdirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda pedagoglarning roli beqiyosdir. Ular nafaqat bilim beruvchi, balki milliy qadriyatlarini targ'ib etuvchi, vatanparvarlik ruhini shakllantiruvchi asosiy figuradir. Ushbu maqolada pedagoglar tomonidan o'zbek do'ppisining yasash usuli hamda «Qaynoq nuqtalar» metodi orqali vatan tuyg'usini ifodalovchi rasm chizish kabi ijodiy yondashuvlar orqali milliy o'zlikni mustahkamlash masalasi STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) va 4K (Kritik fikrlash, Kreativlik, Kollaboratsiya, Kommunikatsiya) ko'nikmalari integratsiyalash nuqtayi nazaridan yoritiladi.

O'zbek do'ppisi – milliy o'zlik belgisi



O'zbek do'ppisi asrlar davomida xalqimizning moddiy va ma'naviy boyliklarini o'zida mujassam etgan noyob san'at namunasi hisoblanadi. U nafaqat bosh kiyimi, balki milliy g'urur, go'zallik va o'ziga xoslik ramzidir. Do'ppining har bir naqshi, ranglar uyg'unligi chuqur ma'no kasb etib, ajdodlarimizning falsafasi, dunyoqarashi va estetik didini aks

ettiradi. Uni yasash jarayoni STEAM ta'limining ajoyib loyihasi bo'lishi mumkin.

San'at (Arts): do'ppining estetik qiymati, ranglar uyg'unligi, naqshlarning go'zalligi va ma'nosi – bularning barchasi tasviriy san'at elementlaridir. Bolalar naqshlar dizaynini yaratishda o'zlarining kreativliklarini namoyon etadilar.

Texnologiya (Technology): do'ppi tikishda turli asbob-uskunalar (igna, qaychi, tikuv mashinasi) va materiallar (ip, mato) ishlatiladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yordamida do'ppi naqshlarini loyihalash (masalan, grafik dizayn dasturlarida) yoki hattoki 3D printer yordamida ba'zi qismlarini yaratish imkoniyatlari mavjud.

Muhandislik (Engineering): do'ppining shaklini, mustahkamligini ta'minlash uchun uning konstruksiyasini o'rganish, qismlarini to'g'ri birlashtirish, chidamliligini hisobga olish muhandislik yondashuvini talab etadi. Masalan, do'ppining egilish darajasini aniqlash, uning boshga qanday o'tirishi kabi jihatlar.

Matematika (Mathematics): do'ppi naqshlarining geometrik shakllari, simmetriyasi, proporsiyalari, o'lchamlari va ularni hisoblashda matematik bilimlar qo'llaniladi. Naqshlarni takrorlashda matematik qonuniyatlar mavjud.



Fan (Science): mato turlari, ularning xususiyatlari (masalan, issiqlik o'tkazuvchanligi, mustahkamligi), ranglarning kimyoviy tarkibi va ularning ta'siri haqida bilimlar fan bilan bog'liq.

Pedagoglar do'ppi yasash jarayonini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish orqali yoshlarda milliy hunarmandchilikka bo'lgan qiziqishni uyg'otishi, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Bu jarayonda bolalar nafaqat do'ppi yasashni o'rganadi, balki har bir naqshning ramziy ma'nosini tushunib yetadi. Misol uchun, bodom

shakli hayot va serfarzandlikni, qalampirgul esa yovuz ko'zdan hi-moyani anglatishi haqida ma'lumot berilishi mumkin. Bu esa bolalarda o'zbek madaniyatiga hurmat, uni asrab-avaylash va davom ettirish istagini kuchaytiradi. Do'ppi yasash jarayoni orqali bolalar guruh bo'lib ishlashni, bir-biriga yordam berishni, sabr-toqatli bo'lishni ham o'rganadi. Bu esa ularning kollaboratsiya (hamkorlik) va kommunikatsiya (muloqot) ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Qaynoq nuqtalar» metodi

Bu metod orqali Vatan tuyg'usini so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan holatlarda san'at, xususan, rasm chizish muhim vosita bo'lishi mumkin.




kin. «Qaynoq nuqtalar» metodi – bu borada juda samarali yondashuv hisoblanadi va 4K ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Metodning mohiyati va 4K bilan bog'liqligi

Mavzu tanlash va tanqidiy fikrlash (Critical Thinking): pedagoglar «Mening Vatanim», «O'zbekistonning go'zalliklari», «Biz faxrlanadigan joylar» kabi mavzularni tanlashi mumkin. Bolalardan o'z vataniga oid eng muhim va ular uchun ahamiyatli bo'lgan «qaynoq nuqtalar»ni aniqlash variantlar orasidan eng muhimlarini tanlab olish, ularni asoslash va ularning vatan tuyg'usini qanday ifodalashini tahlil qilishlari kerak bo'ladi.

Rasmlarda kreativlik (Creativity) va san'at (Arts): Har bir «qaynoq nuqta» atrofida rasmning asosiy kompozitsiyasi quriladi. Bolalar ush-



bu joylar bilan bog'liq his-tuyg'ularini ranglar, shakllar va obrazlar orqali ifodalaydilar. Bu jarayon ularning kreativligini to'liq namoyish etish imkonini beradi. Ular o'z g'oyalarini o'zgacha va o'ziga xos tarzda amalga oshirishga intiladilar.

Taqdimot va kommunikatsiya (Communication): rasmlar tayyor bo'lgach, ularning taqdimoti tashkil etiladi. Har bir bola o'z rasmida nimani aks ettirganini, «qaynoq nuqtalar» unga qanday taassurot berishini so'zlab beradi. Bu jarayon ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ular o'z fikrlarini aniqlik va tushunarli bayon etishni, tinglovchilarni jalb qilishni, savollarga javob berishni o'rganadilar.



Muhokama va kollaboratsiya (Collaboration): rasmlar taqdimoti jarayonida boshqa bolalar savollar berishi, fikr almashishi, o'zaro muhokamalar o'tkazishi mumkin. Bu esa ularning kollaboratsiya qobiliyatini mustahkamlaydi, chunki ular bir-birlarining ishlarini tahlil qilish, konstruktiv fikr bildirish va birgalikda yangi g'oyalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

«Qaynoq nuqtalar»ni aniqlash: Bolalardan vatanni eslatganda ular-da eng kuchli hissiyot uyg'otadigan 3–5 ta «qaynoq nuqta»ni aniqlash so'raladi. Bu joylar O'zbekistondagi tarixiy obida (masalan, Samarqand-dagi Registon), tabiat manzarasi (masalan, Chimyon tog'lari), milliy bayram (masalan, Navro'z) yoki oddiygina o'z uyi, mahallasi bo'lishi mumkin.

Rasmlarda aks ettirish: har bir «qaynoq nuqta» atrofida rasmning asosiy kompozitsiyasi quriladi. Bolalar ushbu joylar bilan bog'liq obrazlar orqali ifodalaydilar. Misol uchun, Registonni chizayotganda uchun, Registonni tuslaridan foydalanish, osori-atiqalar ulug'vorligini aks ettirish, Navro'zni chizayotganda esa yorqin ranglar, sumalak pishirish, o'yin-kulgi sahnalarini tasvirlash.

Taqdimot va muhokama: rasmlar tayyor bo'lgach, ularning taqdimoti

tashkil etiladi. Har bir bola o'z rasmi-da nimani aks ettirganini, «qaynoq nuqtalar» unga qanday taassurot berishini so'zlab beradi. Bu muhokama jarayoni boshqa bolalarda ham vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradi, ularda vatanga bo'lgan sevgi va hurmatni yanada oshiradi.

Millat kelajagi uning o'zligini anglagan, milliy qadriyatlarini qadrlagan va ularni kelgusi avlodlarga yetkazishga qodir yoshlarning qo'lida. Pedagoglar o'zbek do'ppisini yasash va «qaynoq nuqtalar» metodi orqali vatan tuyg'usini ifodalovchi rasm chizish kabi ijodiy va interfaol yondashuvlar vositasida yoshlarda STEAM fanlari bo'yicha bilimlarni amaliyotga bog'lash va 4K ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Bu usullar bolalarda nafaqat ijodiy va texnik qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularni o'z vatani tarixi, madaniyati va an'analari bilan chuqurroq tanishtiradi, ularda vatanparvarlik ruhini mustahkamlaydi. Milliy qadriyatlarga sodiq, o'zligini anglagan hamda XXI asr ko'nikmalariga ega yoshlar esa millatning ertangi kunini bunyod etuvchi asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi.

Sizningcha, pedagoglar milliy qadriyatlarini yoshlarga singdirish uchun yana qanday innovatsion usullardan foydalanishlari mumkin? Pedagoglar STEAM va 4K ko'nikmalarini boshqa milliy qadriyatlarini o'rgatish loyihalariga qanday moslashi mumkin deb o'ylaysiz?

Lola AMETOVA,
Beruniy tumanidagi
48- maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TABIATSHUNOSLIKNI BOSHQA FANLAR BILAN QANDAY INTEGRATSIYALAYMIZ?

Global isish, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, chiqindilar ko'payishi kabi ekologik muammolar zamonamizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Insoniyat tabiat bilan uyg'un yashashni unutib, uni faqat manba sifatida ko'rishga odatlandi. Bugun esa bu yondashuvni zudlik bilan o'zgartirish, avlodlarga ekologik madaniyatni bolalikdan singdirish davr talabi bo'lib qoldi. Aynan shu nuqtayi nazardan boshlang'ich ta'lim — ekologik tarbiyaning eng qulay va samarali bosqichi sanaladi.



Shu bosqichda o'quvchilarning dunyoqarashi shakllanadi, tabiatga nisbatan mehr, g'amxo'rlik, mas'uliyat hissi paydo bo'ladi. Buni esa faqatgina tabiatshunoslik fanini alohida o'rgatish bilan emas, balki uni boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali yanada mukammal shakllantirish mumkin.

Integratsiyalashgan yondashuv nima beradi?

Integratsiyalashgan ta'lim — bu bilimlarning fanlararo bog'liqlikda berilishi, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, real hayotdagi hodisalarni to'g'ri tushunishga xizmat qiluvchi uslubdir. Bu yondashuvda bolalar biror mavzuni bir nechta fanlarda turli ko'rinishda o'rganadi va bu ularning o'zlashtirish darajasini chuqurlashtiradi.

Hayotiy misollar asosida yondashuvlar:

1. Matematika va ekologiya.

Masalan, 3- sinfda «O'lchov birliklari» mavzusi o'tilayotganda, o'quvchilar sinfda joylashgan gullarning o'sish balandligini o'lchaydi, har haftadagi o'sish miqdorini hisoblaydi va diagramma chizadi. Shu orqali ular nafaqat matematika bilimini mustahkamlaydi, balki tirik organizmni kuzatish va unga g'amxo'rlik qilishni ham o'zlashtiradi.

Yoki «Qo'shish va ayirish» amallarida foydalaniladigan masalalar

chiqindilar miqdori, suv sarfi, energiya tejamliligi asosida tuzilsa, bolalarda ekologik muammolar ustida fikrlash ko'nikmasi rivojlanadi.

2. Ona tili va ekologik fikrlash.

Diktantlar, matn tuzish yoki savol-javoblarda tabiat, hayvonot va o'simlik dunyosi, suv resurslarini asrash kabi mavzular asos qilib olinadi. Misol: «Maktabimiz bog'ida daraxt ekkik» mavzusidagi matn orqali bolalar biror amaliy ishni hikoya qilish bilan birga, tabiatga bo'lgan munosabatini ifoda etadi.

Bundan tashqari, maqol, to'pishmoq, tez aytishlar orqali ham ekologik g'oyalar berilishi mumkin: «Daraxt ekkikan soyasida dam olar» — bu maqol bolalarga tabiatga qilgan yaxshilik kelajakda o'zimizga foyda keltirishini anglatadi.

3. Tasviriy san'at darslarida tabiatni tasvirlash.

Bolalar fasllar almashinuvi, hayvonot olami, ifloslanishga uchragan joylar kabi mavzularda rasm chizish bilan ekologik muammolarni his qilishni o'rganadi. «Toza va iflos shahar» mavzusida ikki xil rasm chizdichi qaradi. Bu esa ekologik ongini shakllantirishning eng kuchli vositalaridan biridir.

4. Texnologiya va qayta ishlash g'oyasi.

Texnologiya darslarida o'quvchilarga uyda yig'ilgan plastik qoplar, qog'oz qoldiqlari, eskirgan buyumlardan yangi foydali narsa yasash topshiriladi. Bu nafaqat ekologik tarbiya, balki bolalarda ijodkorlik, mustaqil fikr, tejamlilikni ham rivojlantiradi.

Masalan, chiqindi shishalardan qalamdon yasash, eski gazetalaridan qog'oz sumkalar tayyorlash bolalarga «foydasiz» narsa yo'qligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'limda ekologik madaniyatni shakllantirish — bu kelajakni asrash yo'lidagi eng muhim qadamlardan biridir. Tabiatshunoslikni boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirib o'qitish orqali o'quvchilar:

- tabiatni anglaydi;
- unga g'amxo'rlik qilishni o'rganadi;
- fanlarni real hayot bilan bog'laydi;
- ekologik muammolarga befarq bo'lmagan shaxs sifatida shakllanadi.

Har bir o'qituvchi fanidan qat'i nazar, darsda ekologik tarbiya elementlarini qo'llasa, bu jamiyatda ekologik madaniyatli, mas'uliyatli, e'tiborli avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Muxlisa BOTIROVA,
Forish tumanidagi 15- maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Ayni kunlarda poytaxtimiz davlat maktab ta'lim tashkilotlari pedagoglarini yangi dasturlar bilan ishlashga o'rgatish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari davom etmoqda.



Bugun Yashnobod tumanidagi 240- sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida mentor-pedagog Umida Po'latova tomonidan «Bolalarning kognitiv, ijtimoiy-emotsional va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda «Bigeye tots» dasturining mazmuni va amaliy qo'llanilishi» mavzusida o'quv-amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Uch kunlik mazkur o'quv kursida tumandagi 22 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor va direktor o'rinbosarlari ishtirok etishmoqda.

Toshkent shahar MMTB Axborot xizmati.



Poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 218- sonli umumta'lim maktabi o'quvchilari «Qaldirg'och» yozgi bolalar sport-sog'lomlashtirish maydonchalarida har bir daqiqani mazmunli va maroqli o'tkazishmoqda.




Mazkur maskanda pedagoglar tomonidan olib borilayotgan turli fan, kopyuter savodxonligi, tasviriy san'at, taekvondo, futbol, shaxmat, shashka, ingliz tili kabi to'garaklar mashg'ulotlarida o'quvchilar faol ishtirok etishyapti.

Toshkent shahar MMTB
Axborot xizmati.





Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 47-sonli umumta'lim maktabi qoshidagi «Quvonch» yozgi bolalar kunduzgi oromgohida san'at, kitobxonlik, kompyuter savodxonligi, shaxmat, shashka, mini futbol kabi o'ndan ortiq to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda.



Shuningdek, maktab ma'muriyati tomonidan o'quvchilar uchun poytaxtimizning diqqatga sazovor manzillari, muzeylar, istirohat bog'lariga sayohatlar uyushtirilayotganligi e'tiborlidir. Jumladan, kuni kecha o'quvchilar o'z ustozlari hamrohligida Temuriylar tarixi davlat muzeyida bo'ldilar. Tashrif chog'ida mutaxassislar tomonidan taqdim qilingan ko'plab tarixiy ma'lumotlar o'g'il-qizlar dunyoqarashini kengaytirdi.

Toshkent shahar MMTB Axborot xizmati.

Obuna – 2025

«BOSHLANG'ICH TA'LIM» JURNALI MUSHTARIYLARI DIQQATIGA!



Jurnalimizga 2025- yil uchun obuna bo'lishni istaganlar endi yana ham oson usuldan foydalanishlari mumkin. Sababi, shu kungacha ko'p o'qituvchilar pochta xizmatining yaxshi yo'lga qo'yilmaganidan shikoyat qilishardi. Tahririyatga bildirilgan murojaatlar natijasida xodimlarimiz, «O'zbekiston pochta» bilan bog'lanib, bu masalaga oydinlik kiritishga harakat qilishdi. O'qituvchilar duch kelayotgan shu kabi muammolarning oldini olish maqsadida obuna bo'lishning qulay tizimini yo'lga qo'ydik.

Buning uchun quyidagi tartib orqali to'lovni amalga oshirasiz:

1. Click.uz mobil ilovasi orqali ro'yxatdan o'ting.
2. «To'lov» bo'limiga kiring.
3. «Ta'lim» bo'limiga kirib, jurnal logotipini tanlang.
4. Ism-familiya, manzil ko'rsatilishi lozim.

5. Hududingiz bo'yicha obuna summasini kiritib, «To'lash» tugmasini bosasiz.

6. To'lovni amalga oshirib online obuna bo'lganingiz haqidagi xabar va shaxsiy telefon raqamingizni Sh.Vosiqova (+99890) 975-57-24) telegram manziliga yuborishingiz kerak. Shundan so'ng sizga tahririyat obuna bo'lganingiz haqidagi kvitansiyaning yuboradi.

Jurnalning bir yillik obuna narxi pochta xizmati narxi bilan birga masofaning uzoq-yaqinligiga qarab quyidagicha belgilanadi:

Toshkent shahri va Toshkent viloyati uchun bir yillik (12 oy) obuna narxi – 481 980 so'm;

Andijon, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona, Buxoro va Qashqadaryo, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari uchun – 634 980 so'mni tashkil qiladi.

Jurnalning siz ko'rsatgan manzilga o'z vaqtida yetkazilishi tahririyat tomonidan ta'minlanadi.

Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi: 802
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi: 803

